

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ

(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛАРИ

2024 йил 10 май

Бухоро – 2024

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилаётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида **2024 йил 10 май** куни **“БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ” (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГАЧА)** мавзусидаги Республикао микёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу илмий тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан қизиқувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

Масъул муҳаррир:

БухДУ профессори, тарих фанлари доктори

Ҳ.Ҳ.Тўраев

Таҳрир хайъати ва аъзолари:

О.Х.Ҳамидов - Бухоро давлат университети ректори, и.ф.д., профессор
Т.Х.Расулов - илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, ф.ф.д., профессор
А.А.Болтаев - Тарих в юридик факультети декани, ф.ф.д., доцент
Ф.У.Темиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири, т.ф.ф.д (PhD) доцент
С.И.Иноятов – Бухоро давлат университети профессори, т.ф.д.
М.И.Ниязова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н
М.Б.Қурбонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н
Ф.Ҳ.Бобожонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н
А.Ҳ.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.ф.д (PhD)
Б.Б.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси, т.ф.ф.д (PhD)
О.И.Ражабов - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси,
Ш.Ў.Носиров – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси,

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Темиров Ф.У. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири
Умаров Б.Б. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси
Носиров Ш.Ў– Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2024 йил 4 майдаги
9 – сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

*Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар,
маълумотлар, чиқарилган хулосалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг
ўзлари масъул ва жавобгардир*

“ko`krak tumor”, “qo`ltiq tumor” “bozuband”lar, bilakka taqiladigan “panjarakori”, “dastpona”, “dastpona donador” kabi bilakuzuklar, peshona va chakka qismga taqiladigan-“tillaqosh”, “bolo abro”, “bibishak”, “tilla bargak”ar hamda turli kattalik va ko`rinishdagi uzuklar tayyorlashgan. Buxoro arkida saroyga qarashli “Zargarxoha”da 1 ta zargarboshi, 1 ta bosh zargar va 20 ga yaqin zargar ustalar faoliyat ko`rsatib, ular nafaqat turli-tuman taqinchoqlar, balki 1 ta tilla, 4 ta kumush tahga zarb qiladigan dastgohlarda amirlik pullarini ham zarb qilishgan. Shahar yaqinidagi G`urbun qishlog`ida mis tahga zarb qilingan [5.B.22].

Xullas, XIX asrning ikkiyuz yarmi-XX asr boshida Buxoro amirligi hunarmandchilikning turli sohalarini ravhaq topgan hudud sifatida ham mashhur bo`lgan. Turli qiyinchiliklar va to`siqlarni mardonavor yehgib, hunarmandlar o`z ota meros kasblarini davom ettirib, xalqimizning turli mahsulotlarga bo`lgan ehtiyojini baholi qudrat qondirib kelganlar va o`z hunarlarini asrlar osha asrab-avaylab, hozirgi kunlarimizgacha yetib kelishida o`z hissalarini qo`shganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Массон М.Е. К истории черной металлургии Узбекистана.-Т.: 1947.
- 2.Краузе Л. О туземном оружии в Туркестанском крае.-М.: Сб. “Русский Туркестан”, Выпуск 2. 1872.
- 3.Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны.-Т.: 1922.
- 4.Костенко Л.Ф. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 г. -СПб, 1871.
- 5.Rajab Qilichev. Buxoro shahrida hunarmandchilik.-Т.: Fan, 1996.

BUXORO AMIRLIGI TARIXINI YORITISHDA “TURON” GAZETASINING O`RNI

Nosirov Sherzod O`ktam o`g`li

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,

s.u.nosirov@buxdu.uz

Buxoro amirligi tarixini o`rganishda asosiy manbalar qatorida matbuot sahifalarini ta`kidlab o`tish va ularning o`rnini aytish juda muhim hisoblanadi. Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining protektorati ostida mavjud bo`lgan davrda amirlikning tarixiga oid ma`lumotlarni Turkiston general-gubernatorligining rasmiy nashri hisoblangan 1870-yildan nashr etila boshlangan “Туркестанское ведомости” va uning o`zbek tilidagi nashri hisoblangan va keyinchalik ya`ni 1880-yillar o`rtalaridan nashr etilgan “Turkiston viloyatining gazetasi” kabi vaqtli matbuotlarda ko`plab uchratish mumkin. XIX asrning ikkinchi yarmidan Turkiston o`lkasiga kirib kelgan ushbu yangilik Turkiston tarixi sahifalarini yana bir yangi turdagi manbalar bilan boyitdi.

Buxoro amirligi tarixini yoritish, uning asl voqeliklarini boricha o`rganish albatta manbalar orqali kechadi. XX asr boshlarida Buxoro amirligi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotining turli jabhalari, shuningdek, siyosiy hayotda kechayotgan voqeliklar vaqtli matbuot sahifalarida o`rin olib borgan. Juda ko`plab musulmon mamlakatlari qatorida Buxoro amirligida ham oz bo`lsada faoliyat olib borgan vaqtli matbuot nashrlari “Buxoroi sharif” va “Turon” gazetalari amirlikning hududlarida sodir bo`layotgan hodisalarining fuqarolar orasida yoyiloshiga juda katta o`ringa ega bo`lgan.

Tojik tilida nashr etilgan “Buxoroi sharif” gazetasidan farqli o`laroq “Turon” gazetasi o`zbek tilida obunachilarga yetib borgan. Amirlikdagi rasmiy davlat tili tojik tilida bo`lishiga qaramay, aholining katta qismini o`zbek zamonalar tashkil etgan. Shu sababli gazeta aholi orasida o`z obunachilariga ega bo`lgan.

Gazeta haqida jadid ma`rifatparvari Abdulla Avloniy o`zining 1924-yil “Turkiston” gazetasiga bergan maqolasida shunday ta`rif beradi. “Buxoroda chiqqon “Toshkentda chiqqon “Turon” gazetasi ismida Buxoroda ham “Turon” ismida o`zbekcha bir gazeta, “Buxoroi sharif” ismida forsiycha bir gazeta chiqqon edi. Nusxalari qo`limizda bo`lmag`oni uchun ular to`g`risida muxokama yurutmadik. Har xolda bu gazetalar Buxorodag`i inqilobchi yoshlar tomonidan

chiqorilib Buxoroning amir istibdodidan qutuldirishga, ijtimoiy inqilob yo'llarini chizib ketishka zo'r xizmati tekdi". Shuningdek, gazeta va uning faoliyati xususida Sadridin Ayniy o'zining "Esdaliklar"ida ma'lumotlar berib o'tgan.

Gazeta Buxoro jadidlari tomonidan chiqarilgan bo'lib, Yangi Buxoro (hozirgi Kogon) shahrida 1912-yil 14-iyuldan 1913-yil 2-yanvargacha o'zbek tilida dastlab haftasiga 2 marta, so'ngra 3 marta nashr qilingan. Jami 49 soni chop etilgan.

"Turon" gazetasining bor-yo'g'i 49 soni nashr etilgan bo'lsa-da, u Buxoro amirligida zamonaviy matbuotchilik tarixi boshlanishida muhim bosqich bo'lgan. Buxoro amirligi hududida nashr etilgan birinchi gazetalar „Buxoroyi sharif“ va „Turon“ amirlikda milliy demokratik g'oyalarni targ'ib qilish, savodxonlikni oshirish orqali asriy qoloqlikdan qutulish kabi mavzulardagi targ'ibotchilik ishida, Buxorodagi jadidlarni birlashtirishda o'rni katta bo'lgan. Ushbu ikki gazeta umumiy shaklda 2 600 obunachiga ega bo'lgan. „Buxoroi Sharif“ — 800 obunachiga, „Turon“ gazetasi esa — 1 800 obunachiga ega edi. Bundan ko'rinib turindiki xalq orasida o'zbek tilida nashr etilgan "Turon" gazetasiga talab ko'p bo'lgan va bu gazeta qadrining yuqori bo'lganligini anglatadi.

Ammo ushbu obunachilar soni gazetaning chop etish xarajaylarini qoplamagan, dastlab homiylik natijasida faoliyatni olib borgan gazeta, vaqt o'tishi bilan moddiy manfaat keltirmagach yopilishga mahkum etilgan. Faqatgina bir muncha vaqt gazeta jadidlar tomonidan moddiy va ma'naviy quvvatlantirilishi natijasida faoliyatida davom eta olgan.

Gazeta sarlavhalari amirlik tarixining asosiy madaniy va ma'rifiy jihatlariga ko'proq o'rin ajratgan. Asosiy e'tibor Buxoroning tarixan islom olamidagi qiymati, undagi islom ta'limi va butun islom olami uchun naqadar buyukligi haqida so'z yuritilgan bo'lib, tanqidlar ham aynan shu masalalarda edi. Madrasalardagi ta'lim sifatining tushib ketganligi va umuman Buxoroga mos emasligi haqida aytilgan. Shu sababli madrasa ta'limini isloh qilish va uni zamonaviylashtirish masalasi ko'tarilgan. Gazetaning 9-sonida Kamol No'g'ayning "Maktab va madrasa" maqolasida eskicha o'qitiladigan maktablar qoralanib, farzandlarimizga yangicha usullarda ta'lim berish masalasi ta'kidlangan.

Gazeta sahifalarida islom dinining asl mohiyatini ilm-ma'rifatdan uzoqdagi yoshlarning to'g'ri anglay olmasliklari shu sababli noto'g'ri tanlovlarni amalga oshirishlari haqida yoziladi. Bundan tashqari "Turon" gazetasining shu sonida G'iyosiddinning "15-avgust" va "Talx bir haqiqat" maqolalarida jadid maktablarining ochilishi va ularning foydalari xususida o'z qarashlari berib o'tilgan.

G'iyosiddinning "Talx bir haqiqat" maqolasida Buxoroning qadimdan ilm-marifat markazi bo'lganligi lekin ayni paytda bunday maqomni yo'qatayotganligi aytib o'tilgan. Maqola muallifining ta'kidlashicha millatga ayni zamonda faqat ilohiy ilmlar ozlik qiladi, ilohiy ilmlar bilan birga kofirlarga tegishli deya jar solinayotgan zamonaviy fanlar da juda zarurdir. Buxoro ayni shu fanlarni okrganishni rivojlantirish orqali yana ilgarigi mavqeyiga qayta olishiga ishongan.

Bundan kokrinib turibdiki, gazeta sahifalarida e'lon qilingan maqolalarda aholi orasida ta'lim va tarbiya masalalari doimgidek kun tartibida turgan va kokpchilikni ektiborini tortgan. Ta'lim tizimida jadidlar ilgari surgan yangi usul "usuli savtiya" yoki ushbu usulda ta'lim beriladigan yangi usul maktablari borasida matbuot sahifalarida ham fikr-mulohazalar berib borilgan. O'z yurti va millatining istiqboli uchun erkin fikrlarini ushbu gazeta sahifalarida berib borishgan.

Gazetaning 46-sonidan o'rin olgan "Dorilfunun kerakmi yoki maktab" nomli maqolada ham ayni shu maqsad va muddaoni ko'rish mumkin. Maqolada "Turonliklar xohlasalar 10 yilda ilm xalqini hayron qilurlik taraqqiy va tol'ega yetisha bilurlar" deya juda katta ahamiyatni ta'lim sohasidagi islohotlarga qaratiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, "Turon" gazetasi va shunga o'xshash nashrlar qisqa muddatda bo'lsada tarixning eng unumli va zarur o'rinlarini haqiqat bilan to'ldirish imkoniga egadir. Buxoro amirligi tarixida ham vaqtli mavbuot ayni kerakli va zarur vaziyatda

maydonga chiqib kelganligi va aholi orasida o'z taqdori va kelajagiga befarq bo'lmagan mualliflar va obunachilarga ega bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Туркистон матбуоти тарихи (1870-1917). Т: Академия, 2000.
2. Жамолова Д. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари). –Т: 2021.
3. Темиров Ф. Садриддин Айнийнинг Туркистон минтақасидаги ижтимоий-маданий ҳаётда тутган ўрни ва илмий мероси. –Бухоро, 2023.
4. К. Раҳмонов. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида. Toshkent „Abu matbuot-konsalt“ 2012.
5. Sadriddin Ayniy, Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, M., 1926.

**O'RTA OSIYADA INGLIZ-RUS RAQOBATINING AFG'ONISTONDAGI
MIGRATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIRI**

Orziyev M.Z.

**BuxDU “Jahon tarixi” kafedrasi,
dotsent, t.t.f.d. (PhD)**

Zayniyev K.M.

**Toshket davlat shaqshunoslik universiteti
III bosqich talabasi**

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o'lkasi mustamlakachi davlatlar tomonidan bosib olingan yoki qaram, vassal davlatlarga aylantirilgandi. Ruslarni Hindistonga yaqinlashtirmaslik uchun inglizlarga Afg'oniston buffer davlat vazifasini o'tashi lozim deb hisoblangan. Shuningdek, Afg'oniston inglizlar ta'sir doirasida bo'lishi alohida e'tibor qaratganlar. Shu sababli Afg'onistonda inglizlarga moyil siyosat yuritgan hukumdorlarni moliyaviy va harbiy qo'llab-quvvatlaganlar. Bu eng avvalo afg'on bo'lmagan etnik birliklarga, xuusan o'zbek-tojiklarga o'tkazilgan zulmda ro'zga tashlangan. Afg'onistonda SHERALIXON (1863-1879 yy) davrida afg'onlarning Janubiy Turkistondagi o'zbek-tojiklarga ko'rsatgan zulmlari natijasida 12 ming oilaning Buxoro amirligi hududiga borib o'rnamshgan[11. 31]. Bu Buxoro-Afg'oniston va Rossiya-Angliya munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

O'zbeklarning Afg'oniston hududidan qochib o'tishi asosiy sababi afg'onlarning o'zbeklarni kamsitilishi va haddan ortiq zulm qilinishi bo'lgan[3. 3]. Shuningdek ro'plab soliqlarni joriy etilishi ham sabab bo'lgan. Afg'onlar hatto Badaxshonda ko'pajuma (payshanbadan jumaga o'tar kechasi er-xotin munosabati) deb atalgan soliq joriy qilishdan ham uyalmaganlar[1. 514]. Bu kabi shariat va axloqqa to'g'ri kelmaydigan soliq va majburiyalar mahalliy aholini g'azablantirishi tabiiy. Aholi orasida Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shilish tarafdorlari oshib brogan. Shu sababli Afg'oniston va Angliya, shuningdek, Usmonli turk saltanati ayg'oqchilari Buxoro, Xiva va Turkistonda o'z ayg'oqchilarini yuborib, Rossiya imperiyasiga qarshi kayfiyatni shakllantirish va o'lkada notinchliklar keltirib chiqarishga harakat qilganlar. Misol tariqasida N.V. Charikov ma'lumotlarini keltirib o'tish mumkin. N.V. Charikov (1886-1895 yillarda Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligini boshqargan) Abdurahmonxon hokimiyat tepasiga kelganiga ko'p bo'lmay, Buxoroda uning ikki ayg'oqchisini ko'rganligini yozib qoldirgan[7. 50]. Shunday bo'lsada Afg'oniston hududida Rossiya tarafdorlari soni oshib boravergan. Misol tariqasida, 1886 yili avg'onlardan yollangan ayg'oqchilar Chitral orqali inglizlarning generl Uilyam Lokxart boshchiligidagi harbiy bo'linmalari Badaxshonga Buxoro chegaralariga kelayotgani xabari olinganligi bilan bog'liq ma'lumotni keltirib o'tish lozim[7. 50].

Afg'onistondagi yirik migratsiya to'lqini 1888 yilda Janubiy Turkistonda Is'hoqxon ko'targan qo'zg'olondan so'ng bo'lib, qo'zg'oloni muvofaqiyatsizlikka uchragandan keyin Rossiya imperiyasi qo'l ostidagi Samarqand shahriga o'zining yetti yuz kishidan iborat

Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

| | |
|--|-----|
| У.Муродуллаев. ЎЗБЕК ДАВЛАТЧИЛИГИ ТАРИХИДА МАНФИТЛАР СУЛОЛАСИНИНГ ЎРНИ | 217 |
| Мақсуд Бешимов. АЙНИЙ ВА МУНЗИМ..... | 219 |
| Г.Нормуродова, О НЕКОТОРЫХ ИЗМЕНЕНИЯХ В СОЦИАЛЬНОЙ СТРУКТУРЕ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА (КОНЕЦ XIX – НАЧАЛО XX ВЕКА) | 221 |
| Feruzha Sharopova, A'zam Boltayev. BUXORO AMIRI KOLLEKSIYASINING TAVSIFI.... | 225 |
| Исмат Нусратиллоевич Наимов. БУХОРО АМИРЛИГИДА ҚОЗИ МАНСАБИ ВА ХИЗМАТ ФАОЛИЯТИ ЙЎНАЛИШЛАРИ | 228 |
| Baxtiyorov Behruz Bobirovich. SOVET DAVRI MANBALARIDA BUXORO AMIRLIGINING BOSIB OLINISHI MASALALARINING YORITILISHI..... | 232 |
| Гулирухсор Темирова. XX АСР БОШЛАРИГА ОИД ЁЗМА МАНБАЛАРИДА БУХОРОНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ВА МАДАНИЙ ҲАЁТИ..... | 234 |
| Ғаниев Камолиддин. БУХОРО АМИРЛИГИ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ҲАЁТИ ТАҲЛИЛИ (Ахмад Донишнинг “Рисола, ёхуд Манғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи” асари асосида)..... | 236 |
| Musinova Aziza Sadikovna. BUXORO KANDAKORLIK SAN 'ATIDA NAQSH VA KOMPOZITSIYA | 239 |
| Inoyatova Mohinur Mirzobek qizi, Utayeva F.X. TURKISTON DAVRIY MATBUOTIDA IJTIMOYIY JARAYONLARNING YORITILISHI | 243 |
| B.G'. Rasulov. F.K.GIRS TAFTISH HISOBOTLARIDA ZARAFSHON OKRUGINING MA'MURIY-HUDUDIY TUZILISHI VA BOSHQARUV TIZIMINING AYRIM JIHATLARI..... | 244 |
| Tal'at Halimov. BUXOROLIK SAXOVATPESHA VA XALQ HOMIYSI CHORIQLUBOY | 246 |
| G.R. Ostonova. ROYI KALON ME'MORIY ANSAMBLI TARIXI | 249 |
| Рахимджанова Нигора. БУХОРО АМИРЛИГИДА ОЛИБ БОРИЛГАН ИЛМИЙ ЭКСПЕДИЦИЯ ВА САФАРЛАР ТАРИХИДАН (XIX АСР ОХИРИ-XX АСР БОШЛАРИ)..... | 252 |
| Mahmuda G'oyibnazarova. BUXORO AMIRLIGIDAGI IJTIMOYIY-IQTISODIY JARAYONLAR (“OYINA” JURNALI MAQOLALARI ASOSIDA)..... | 256 |
| Nosirov Sherzod O'ktam o'g'li. BUXORO AMIRLIGI TARIXINI O'RGANISHDA MAHALIY MATBUOT NASHRLARINING AHAMIYATI | 259 |
| Bobodustov Bobur Mirzoboyevich. XIX ASRNING OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA ZARAFSHON VOHASI SUV XO'JALIGIDA SARFLANGAN XARAJATLARNING TARIXIY-MANBAVIY TAHLILI..... | 261 |
| Qilichev R.E. BUXORO AMIRLIGIDA METALLSOZLIK..... | 264 |
| Nosirov Sherzod O'ktam o'g'li. BUXORO AMIRLIGI TARIXINI YORITISHDA “TURON” GAZETASINING O'RNI..... | 266 |
| Orziyev M.Z., Zayniyev K.M. O'RTA OSIYADA INGLIZ-RUS RAQOBATINING AFG'ONISTONDAGI MIGRATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIRI | 268 |
| Parmonov Sharofiddin Shavkatovich. VASSAL BUXORO AMIRLIGI DAVRIDA SHAHRISABZ BEKLIKI | 271 |
| Irgashov Xusniddin Nuridin o'g'li, Normatov Otabek Maxammatjonovich. BUXORO AMIRLIGIDA “YANGI USUL” MAKTABLARINING OCHILISHI VA ULARNING MINTAQADAGI FAOLIYATI | 274 |
| M.B.Misaboyeva, Normatov Otabek Maxammatjonovich. YOSH BUXOROLIKLAR HARAKATI TARIXIDAN | 276 |
| Маҳмуд Ҳамраев. АМИР ОЛИМХОНИНГ ИНГЛИЗ ҚИРОЛИГА МАКТУБИ..... | 280 |
| J.X.Arziqulov. BUXORO TADBIRKORLARINING KO'RGAZMA VA YARMARKALARDAGI ISHTIROKI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA)..... | 282 |
| Bayramova Nodira. BUXORO XONLIGIDA, XAYRLI KASALLIK' NOMINI OLGAN „RISHTA” VA | 284 |